

## O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA SINIF RAHBARI VA OILA HAMKORLIGI

**Karimova Shahnoza**

**Ismoilova Zilola**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-g guruh talabari,*

**Nurabullaeva Muxlisa**

*1-g guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'quvchi shaxsini rivojlantirishda sinf rahbari hamda oila hamkorligi, oila nima, uning bola tarbiyasidagi roli, ahamiyati haqida, Oila kodeksi, "Ona va bola" davlat dasturi, sinf rahbarining vazifalari to'g'risida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Oila, hamkorlik, o'quvchi, shaxs, sinf rahbari, "Oila yili", "Oila kodeksi", "Ona va bola" davlat dasturi, "Avesto".*

**Abstract:** *This article talks about the cooperation of the class leader and the family in the development of the student's personality, what is the family, its role and importance in child education, the Family Code, the state program "Mother and Child", the duties of the class leader.*

**Key words:** *Family, partnership, student, person, class leader, "Family Year", "Family Code", state program "Mother and Child", "Avesta".*

Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi kattalarning bir butun holdagi ta'limiy-tarbiyaviy ta'sirlar tizimining kelishilgan holda amalga oshirilishi natijasida amalga oshadi. Bolalar tarbiyasida oilalarning tutgan o'rne alohida. Shuning uchun ham oila mamlakatimiz tomonidan davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala hisoblanadi. Yurtimizda 1998-yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi, «Oila kodeksi»ning qabul qilinishi, davlatimiz tarixida ilk marta Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi, «Ona va bola» davlat dasturi haqidagi qarorning qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.. Oila kontseptsiyasining yaratilishi va uni amaliyotga joriy etish mexanizmining ishlab chiqilishi orqali jamiyatning ijtimoiy-gumanitar siyosatining yo'lga qo'yilishi bilan oila, ona va bolani ijtimoiy himoyalash vazifasi amalga oshirilmogda. Zero, odob-axloq va madaniyat qonuniyatlari asosida oiladagi ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish talab etilmogda. Yuqorida bolaning tarbiyasida oilaning tutgan o'rni, "Oila yili", "Oila kodeksi" va bir qancha oila to'g'risidagi so'zga duch keldik. Oila o'zi nima? Uning lug'aviy ma'nosi qanaqa? Endi shu haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lamiz. Oila so'zi O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'riflanadi: "Oila - er-xotin, ularning bola chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon". Kengroq ta'rif beradigan bo'lsak: "Oila – bu qon-qarindoshlik asosidagi yaqin insonlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topgan, bolaning ijtimoiy, pedagogik, psixologik, jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun zamin hozirlaydigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xatti-xarakatlar va an'analariga ega bo'lgan ijtimoiy institut" hisoblanadi.

Bizning islom dinimizda oila muqaddas hisoblanadi. Oilani buzish bu katta gunoh. Zardushtiylikning qadimiy kitobi hisoblangan "Avesto" da ham oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, fafzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan. Bundan ko'rinadiki, diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burchi va mas'uliyatlari, ota-onaning bola va o'z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, urning xotiniga hurmat va e'zoi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralgan ekan.

Oilaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga doir olib borilgan

ilmiy izlanishlar natijasida oilalarning har turli tiplar mavjudligi aniqlangan.

Masalan: 1. Patriarxal-modernizatsiyalangan oilalar. Bu tipdagi oilalarda otaning oilada tutgan o'rni katta bo'lib, o'rtacha yoki ko'p sonli farzandlarga ega bo'ladilar. 2. Markaziy o'rinni bola egallagan oilalar. Bunday oilalarda bitta yoki ikkita, ya'ni oz sondagi farzandlar tarbiyalanib, kattalar kichkinalarni o'z qaramog'iga olgan bo'ladi. Haddan tashqari erkalatishlar natijasida bolalarning ijtimoiylashuviga halaqit berish kabi omillarning mavjudligi bu tipdagi oilalarga xosdir. 3. Umr yuldoshlarning o'zaro hurmat va izzati asosida qurilgan to'liq oilalar. Nikoh asosida qurilgan bunday oilalarda bola shaxsining xar tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. 4. Ona rahbarlik qilgan oilalar. Bu kabi oilalarda asosiy rol onaning qo'lida bo'lib, farzand tarbiyasida onaning shaxsiy pozitsiyalari ustuvorlik qiladi. Ona butun borlig'ini farzandiga bag'ishlab, bola uchun yashaydi, uning to'la-to'kis yashashi uchun barcha qulayliklarni yaratishga imkon qadar harakat qiladi. 5. To'liq bo'lmagan oilalar. Bunda oiladagi ikkita ustun, ya'ni ota va onaning to'liq bo'lmagan sharoitdagi oilalar tushuniladi. Turli ijtimoiy omillar va hayotiy muammolar bilan bog'liq holda yoki onaning yoki otaning ishtirokisiz tarbiyalanayotgan bolaning ijtimoiy holati, uning ta'lim olishi yoki tarbiyalanishida, psixik rivojlanishidagi muayyan kamchiliklar va ziddiyatlar, afsuski, ijtimoiy hayotda uchrab turadigan holatlar hisoblanadi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishda sinf rahbari ham asosiy o'rinni egallaydi. Sinf rahbarining oila bilan ishlashida ota-onalarni o'quvchilarning taraqqiyoti, xulq-atvori va ijtimoiy foydali ishi haqida muntazam ravishda xabardor qilish muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda har chorakda bir marta ota-onalar yig'ilishlari o'tkazilib, unda maktab o'quvchilarining o'zlashtirishi va intizomi holati atroflicha tahlil etilib, bu boradagi oila faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab olinadi. Zarur hollarda, ma'lum bir ta'lim muammosini hal qilishda oilaning shoshilinch aralashuvi zarur bo'lganda, sinf rahbari ota-onalarning uyiga tashrif buyuradi yoki ularni maktabga taklif qiladi va ular o'quvchilarning bilimini yoki xatti-harakatlarini yaxshilash uchun qanday choralar ko'rish kerakligini birgalikda kelishib oladilar. Sinf rahbari bolani tarbiyalash orqali oilaviy tarbiyaga ta'sir ko'rsatayotganligini unutmazligi kerak. Bunda sinf raxbari:

- oilaning muhitini, bolani o'rab turgan mikromuhit, uning oila a'zolari bilan munosabatini,

- ota-onalarni pedagogik va psixologik jixatdan yuksaltirishni,

- ota-onalarning va bolalarning bo`sh vaqtini samarali tashkil etishga doir ishlarni bajarishi,

- tarbiyasi og`ir bolalarning oilalarida bolalarning huquqlarini himoya qilishi lozim.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, oilada ota-onalarning rahnamoligida bolalar ilk bor atrof-muhit, voqea va hodisalarning sabablari, insoniy sifatlar va ma`naviy fazilatlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi, ularning iste`dod va qobiliyatlari rivojlantirilib boriladi. Ammo barcha oilalarda ham bola tarbiyasiga yetarli darajada e`tibor berilmasligi, ularning ta`lim olishiga, makro va mikro omillarning bola tarbiyasi va ruhiyatiga bo`lgan ta`siriga ahamiyat berilavermaydigan holatlarning mavjudligini ijtimoiy hayotning o`zi ko`rsatmoqda. Buning asosiy sababi, ota-onalarning pedagogik savodxonlik darajasi va madaniyatining talab darajasida emasligidadir. Chunki aynan oilalarda bolalarning ma`naviy-axloqiy sifatleri, xarakter va individual xususiyatlari shakllanib boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta`lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta`lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
2. Rustam Jo`raqulov. Boshlang'ich ta'limning bugungi kundagi dolzarb muammolari. Ta`lim va taraqqiyot. 25.06.2016
3. «O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasining. O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish. – T.: «Sharq» nashriyot matbaa Bosh tahririyati. 2000 y
4. Mavlonova R.A., To`raeva O.T., Xoliqberliev K.M. “Pedagogika” - T.; O`qituvchi 1998 y.
5. Mavlanova R., Normuradova B., Raxmanqulova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. –T.: Fan, 2007.
6. Z.K.Kurbaniyazova, Boshlang'ich sinflarda ota-onalar bilan ishlash metodikasi Toshkent “Tafakkur avlodi” 2020y